FARG‘ONA VILOYATI MARG‘ILON SHAHAR HOKIMINING

Q A R O R I

2023 - yil 17 - iyul 151-11-168-Q/23 Marg‘ilon shahar hokimligi

LOYIHA

Marg‘ilon shahar Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2023-2024 o‘quv yili uchun mikrohududlarini biriktirish to‘g‘risida

Marg‘ilon shahar Maktabgacha va maktab bo‘limining 2023-yil 19-iyundagi “Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadida shahardagi har bir ta’lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish to‘g‘risida”gi 167-sonli murojaatiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi” Nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 5-bob, 39-bandi va Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi qonunining 6,25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Shahar Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining 2023-yil 19-iyundagi “Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadida shahardagi har bir ta’lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish to‘g‘risida”gi 167-sonli murojaati ma’qullansin.

2. Shahar Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi har bir ta’lim muassasalariga hudud va mikrohududlarga biriktirish jadvali 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (G.Qayumova)ga

bo‘lim tasarrufidagi umumiy o‘rta ta’lim maktablariga hudud va mikrohududlar belgilanishi munosabati bilan belgilangan tartibda o‘quvchilarni umumta’lim maktablar quvvati darajasida qamrab olishni tashkillash, ota-onalar bilan tegishli tartibda tushuntirish ishlarini olib borish, malakali o‘qituvchi pedagoglar bilan ta’minlash hamda yetarli shart sharoitlar yaratish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qaror bilan shahardagi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2023-2024 o‘quv yili uchun mikrohududlar biriktirilishi munosabati bilan shahar hokimining 2022-yil 16-avgust kungi 336-11-168-Q\22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Shahar hokimligi Matbuot xizmati (A.Mansurov), “Ruxsor” teleradiokanali (N.Asqarov), “Marg‘ilon haqiqati” ro‘znomasiga mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va hokimlik veb-saytiga joylashtirilishi tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari A.Abdullayev hamda shahar Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi mudiri G.Qayumovalar zimmasiga yuklansin.

Marg'ilon shahar hokimi **A.Ziyavitdinov**

Marg‘ilon shahar hokimining
2023-yil 17-iyuldagi
151-11-168-Q/23-son qaroriga
1-ilova

